



RAQAMLI IQTISODIYOT TEXNOLOGIYALARI VA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH TAMOIYILLARI

Sodikova N. I.

Xashimxodjaeva M.Dj.

Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchilari

Tayanch so'zlar: elektron tijorat, elektron biznes, biznes modellar, shaxsiy ma'lumotlar, davlat xizmatlari, elektron xizmat ko'rsatish.

Ключевые слова: электронная коммерция, электронный бизнес, бизнес-модели, персональные данные, государственные услуги, электронные услуги.

Key words: e-commerce, e-business, business models, personal data, government services, e-services.

Mamlakatimiz yangi iqtisodiy bosqichga ko'tarilishi oqibatida barcha sohalarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi oqibatida elektron tijorat tizimi ham yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmonida "Elektron tijorat va elektron to'lovlar tizimi"ni rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan mijozlarni masofadan aniqlash tizimlarini joriy etish orqali masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish; xalqaro elektron tijorat standartlari va zamonaviy axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish uchun elektron tijoratni rivojlantirishning huquqiy asoslarini, shuningdek, mavjud standartlar va elektron tijorat qoidalarini takomillashtirish va yangilash; raqamli infratuzilmani rivojlantirish, mobil va simli Internet jahon axborot tarmog'i qamrovi va tezligini yanada oshirish orqali elektron tijorat platformalariga shaxsiy raqamli uskunalaridan ulanish imkoniyatlari va ko'lamlarini oshirish va hokozolar" amalga oshirish belgilab berilgan.

Demak, mamlakatimizda 2030 yilgacha barcha sohalarda raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarini jadal amalga oshirish va bu orqali mamlakat



iqtisodiy qudratini mustahkamlash, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini munosib turish vazifalari ham belgilangan.

Elektron tijorat (e-tijorat, ingl. “e-commerce”) - bu internet orqali savdo-sotiq amaliyotlarini tashkil etish. Elektron tijoratga hozirgi eng katta internet auksioni va do‘koni eBay misol qilishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib, elektron tijorat – O‘zbekiston iqtisodiyotida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirdi va mamlakatdagi mavjud holat, muammolar va istiqbollarni o‘rganishga zamin yaratildi.

Axborot texnologiyalarining tezlik bilan rivojlanishi iqtisodiyotda ham o‘z aksini topmasdan qolmaydi. Hozirgi kunda iqtisodiyotda, ayniqsa zamonaviy marketing sohasida erishilayotgan yutuqlar negizida aynan axborot texnologiyalari turli segmentlarining yuqori darajada rivojlanganligi va samarali qo‘llanishi yotadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti ham bundan mustasno emas albatta. Yaqqol misol sifatida axborot texnologiyalarining bir qator segmentlari masalan, ma’lumotlar yetkazish tarmoqlari, axborot internet-resurslari va ular orasidagi elektron hujjat almashuv, internet marketing tizimlari, biznes va tijoratning barqaror rivojlanayotganini keltirish mumkin. O‘zbekiston uchun axborot texnologiyalarini rivojlantirish yangi iqtisodiy aloqalarni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu jarayon, axborot texnologiyalari sohasida ta’lim standartlarining oshishi, milliy telekommunikatsiya tarmoqlarining modernizatsiyalashuvi, huquqiy bazaning shakllanishi oqibatida vujudga keladigan jamiyatning ma’lum darajadagi informatsion tayyorligi mavjud bo‘lgan holatdagina sodir bo‘ladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining ham bosqichma-bosqich rivojlanishi oqibatida biznes faoliyatini yuritishning yangi prinsiplari, ayniqsa, elektron tijoratning ahamiyati juda oshdi.

Bugungi kunga kelib, har bir internet foydalanuvchisi elektron tijorat so‘zining ma’nosini tushunishga harakat qilib ko‘rgan. Hali o‘zining uzoq tarixini qurishga ham ulgurmagani bunday faoliyat bilan bog‘liq AQSh bozorlarida yiliga o‘rtacha 1,5 – 2 trln. AQSh dollari miqdorida mablag‘lar aylanadi.

“Elektron tijorat” termini EDI (Elektronik Data Interchange – ma’lumotlarni elektron almashish), elektron pochta, internet, intranet (kompaniya ichida axborot almashish) va ekstranet (tashqi dunyo bilan axborot almashish) kabi texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. O‘z navbatida **Elektron tijorat tizimini** uch sinfga bo‘lish mumkin:

- Chakana savdoni tashkil qilish bo‘yicha (biznes-iste’molchi, B2C);
- Biznes hamkor bilan aloqalar o‘rnatish (biznes-biznes, B2B);



- Iste'molchilar o'rtasidagi savdo (iste'molchi-iste'molchi, C2C).

Elektron tijorat kundan - kunga tovar va xizmatlar assortimentini oshira boshlagan sari alohida shaxslarni, korxonalarni, sohalarni, davlat muassasalarini va nihoyat davlatlarni bir hamjamiyatga birlashtirib, hamkorlarning o'zaro ta'siri axborot va telekommunikatsion texnologiyalar yordamida samarali va to'siqlarsiz kelishuvlarga erishishiga imkon berdi.

Elektron tijorat o'z - o'zidan mahsulot sotish va xizmat ko'rsatish va etkazib berish shartnomalarini tuzishda ikkita: moddiy va nomoddiy oqimlar, oqim xizmati bilan bog'liq: Nomoddiy oqimlar nomoddiy tovarlar (dasturiy ta'minot, bino loyihalari va b.) ni to'g'ridan - to'g'ri tarmoqli uzatish, moddiy xizmatlar (transport chiptalari, mehmonxonalarda xonalar va x.z. buyurtmasi)ning to'g'ridan - to'g'ri tarmoqli bajarilishi, hamkorlar (mijozlar, buyurtmachilar, etkazib beruvchilar, subpudratchilar, banklar va b.) bilan moliyaviy tarmoqli hisobotlar, moddiy xizmatlarni etkazib berishni axborot va telekommunikatsion qo'llab - quvvatlash natijasida yuzaga keladi.

Elektron tijoratning o'ziga xos qulayliklari va ustunliklari mavjud:

- xalqaro operatsiyalarda axborot olish tezligi oshadi;
- ishlab chiqarish va sotish davri qisqaradi;
- arzon kommunikatsion vositalardan foydalanish evaziga axborot almashish xarajatlari kamayadi.

Korxonalar axborot texnologiyalarini samarali qo'llash orqali iste'molchilar bilan ochiq munosabat o'rnatish, mahsulot va xizmatlar to'g'risida hamkor va mijozlarni tezkor axborot bilan ta'minlash, sotuvning alternativ yo'llarini, misol uchun tijorat saytlarida elektron do'konlar ochish va yaratish imkoni beradi.

Elektron tijorat asosida yangi savdo-sotiq korxonalarini – elektron do'konlarni yaratmoqda, raqobatning kattaligi sababli ularda yangi turdagi xizmatlar va tovarlar paydo bo'lmoqda. Elektron tijoratning asosiy elementi bo'lib, tovarlarni internetda sotish va aylanishi xisoblanadi. Tovarning aylanishi, uni sotishga mo'ljallangan to'liq kompleks tadbirlar asosida amalga oshirilishi lozim. Ular axborotni ishlab chiqish va ishlatish, reklama tadbirlari va shunga o'xshash tadbirlardir.

Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda davlat organlari elektron tijoratni rivojlantirishda, dunyo tajribasida keng qo'llanilgan quyidagi tamoyillarga amal qilishmoqda:

- Elektron tijoratni rivojlantirishda korpoorativ sektor faol rol o'ynashi lozim;
- Elektron tijoratga nisbatan, davlat organlari tomonidan asoslanmagan turli cheklovlar qo'yilishiga yo'l qo'yilmaslik lozim;



- Davlat hokimiyati elektron tijorat jarayoniga, ushbu soha subyektlarini qo'llab-quvvatlash va huquq bazasini takomillashtirish maqsadida aralishishi mumkin;

- Elektron tijoratni boshqarish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda davlat hokimiyati Internetning o'ziga xosliklarini inobatga olishi lozim;

- Elektron tijorat jarayoni ma'muriy-hududiy bo'linish va davlat chegaralariga bog'liq bo'lmagan ravishda, global masshtabda sodir bo'lishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish bilan bir qatorda bu sohaning takomillashishiga to'sqinlik qilayotgan bir qancha muammolar ham mavjud. Bu muammolarning tezkor va aniq yechilishi bugungi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan quyidagi yechimini kutayotgan masalalar jahon tajribasida keng tarqalgan bo'lib, ularning to'g'ri hal qilinmasligi oqibatida bu sohada jiddiy inqirozlar vujudga kelishi mumkin.

Birinchidan, zarur infrastrukturaning hali ham yetarli darajada takomillashmagani. Quyida bir nechta misollar keltiramiz:

- internetning global tarmog'i bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan provayderlar soni cheklangan miqdorda va buning natijasida internet mijozlarga provayder o'rtasida biridan ikkinchisiga tashish orqali yetkazilmoqda, ma'lumki bunday holat xizmat ko'rsatishning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

- hududlarda ko'rsatilayotgan internet xizmatining sifat ko'rsatkichlari poytaxtdagi holat bilan solishtirganda sezilarli darajada yomon. Ajratilgan ulanish (ADSL modem) uchun yetarli shart-sharoitning yaratilmaganligi natijasida mijozlar to'g'ridan-to'g'ri qo'ng'iroq qilish orqali (Dial-up) ulanishdan foydalanishadi. Bu o'z navbatida xizmat sifatining yetarli darajada bo'lmasligiga olib keladi.

Ikkinchidan, internet foydalanuvchilarining miqdori shunday darajadagi, bu holat elektron tijorat bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan yirik bozor yaratish imkonini bermaydi (O'zbekiston bo'yicha internet foydalanuvchilarining soni 2,5 mln. dan ortiq).

Uchinchidan, jismoniy shaxslarning bank hisob raqamlaridan online to'lovni amalga oshirishni ta'minlaydigan ishonchli tizimning rivojlanmaganligi. Banklarimiz tomonidan chiqarilayotgan plastik kartochkalardan faqatgina maxsus terminallardan foydalanib to'lovni amalga oshirishimiz mumkin, xalqaro tajribada esa plastik kartochkalar yordamida, to'lovni qabul qilish uchun o'rnatilgan maxsus modullar orqali, to'g'ridan-to'g'ri online do'konlarda to'lovni amalga oshirish mumkin.



Asosiy muammo shundaki, O'zbekistonda jismoniy shaxslar uchun online banking xizmati keng tarqalmadi. Online banking bank mijozlari uchun internet tarmog'ida yoki mobil aloqa yordamida o'z hisoblarini boshqarish va to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bir necha banklar tomonidan taklif etilayotgan SMS-banking bir tomonlama bo'lib, faqatgina hisob va operatsiyalar tarixi haqida ma'lumot olish uchun mo'ljallangan. Bu holat elektron tijoratning rivojlanishiga eng katta to'siq bo'layotgan muammolardan biridir.

To'rtinchidan, mavjud internet-do'konlar faoliyatida yetarli professionallik darajasi yetishmaydi. Aloqa va axborotlashtirish agentligi chop etgan ma'lumotlarga ko'ra 01.01.2008 yil holatiga bo'yicha O'zbekistonda 24 internet-do'kon faoliyat yuritadi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilishda asosiy e'tibor beriladigan yo'nalishlar sifatida quyidagilarni taklif qilamiz:

- Elektron tijorat sohasida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarur. Ilmiy ishlar, maqolalar yozish, maxsuslashtirilgan internet-resurlar yaratish, doimiy forum va konferensiyalar tashkil etish, kadrlar tayorlashda elektron tijoratning nafaqat texnik, balki iqtisodiy va huquqiy xususiyatlarini ham inobatga olish, eng asosiy muammolardan biri - malakali kadrlar yetishmovchiligini, oldini oladi.

- Telekommunikatsion xizmatlarni ko'rsatish sohasida raqobatni rivojlantirish. Bu xizmat sifatining oshishiga, narxlar darajasining tushishiga va elektron tijorat uchun ma'lum internet-auditoriyalarining yaratilishiga olib keladi.

- AKT sohasiga investitsiyalarni kiritish uchun qulay huquqiy sharoitning ko'rsatilgan tartibda doimiy mavjud bo'lishini ta'minlash.

- O'z-o'zini boshqarish va tajriba almashish tizimlarini yaratish.

Elektron tizimi bo'yicha ta'lim tizimini rivojlantirish

- Axborot texnologiyalarining butun O'zbekiston bo'ylab keng tarqalishini ta'minlash. Nafaqat viloyat markazlarida, balki chekka qishloqlarda ham axborot texnologiyalarining joriy qilinishi elektron tijorat hajmining sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

- Online banking tizimini butun respublika bo'ylab samarali joriy qilish. Bu ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar uchun o'z tovar va xizmatlari bilan internet tarmog'i orqali erkin savdo qilish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga bu bank sohasining boshqa yo'nalishlari bo'yicha ham sezilarli o'zgarishlarga olib keladi.



Shuni bemalol ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston o'zining yuqori darajali intellektual imkoniyatlari bilan axborot texnologiyalari tamaddunining qirg'og'ida qolib ketmasligi zarur.

Elektron tijoratni rivojlantirish jamiyatimiz uchun quyidagi natijalar beradi:

- Elektron tijoratning rivojlanishi O'zbekiston mehnat bozori strukturasi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqori axborot texnologiyalarini sanoatlashtirish minglab yangi ish o'rinlarini yaratadi.

- O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorlashishi, tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligi kuchayishi va elektron tijorat rivojlanishining bir paytda sodir bo'lishi eksport imkoniyatlarimizning oshishiga olib keladi.

Jahonda elektron tijorat tizimlari orqali onlayn-savdo bozori tobora rivojlanib bormoqda. Elektron tijoratning supergigantlari hisoblangan Amazon (AQSh), Alibaba va JD.com (ikkisi ham Xitoy) kabi kompaniyalar hozirda xalqaro onlayn savdoning 40 foizini nazorat qilib, jahondagi eng yirik 10 ta elektron tijorat bozorlaridan yettitasini boshqarmoqda va global logistika tarmog'ida tovarlar harakatining yo'nalishlarini belgilab bermoqda.

Elektron tijorat bozorining mahsuli – chegarabilmas turli posilkalar va mayda paketlar almashinuvining kundan-kun o'sib borishi turli mamlakatlar pochta va bojxona xizmatlari o'rtasidagi hamkorlikni har qachongidan ham mukammal qilishni talab qilmoqda. Bojxona tartibi va tartibga solish mexanizmlari elektron tijoratning jadal o'sishiga mos kelmay qolmoqda. Yangi bozor global logistika tarmog'ining uzluksiz, muvofiqlashtirilgan va ishonchli ishlashini ta'minlash masalasida Jahon pochta ittifoqi (JPI)ning Xalqaro bojxona va transport idoralari — Jahon bojxona tashkiloti (JBT), Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi (IATA), Xalqaro fuqaro aviatsiyasi assotsiatsiyasi (IKAO) bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirishni talab qilmoqda.

JBT – JPIning pochta jo'natmalarini bojxona rasmiylashtiruvchi bo'yicha qo'shma qo'llanmasiga binoan, bojxona ma'muriyati tayinlangan operator bilan hamkorlikda bojxona orqali o'tadigan pochta jo'natmalarini chiqarish tartib-qoidalarini soddalashtirish, amalda standartlar/protseduralarni muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirilishida amaliy yordam berishi kerak. Masalan, Bojxona hamkorlik kengashi qiymati 30 SPZ (41 AQSh dollari) dan oshmaydigan sovg'alarni Bojsiz qabul qilish bo'yicha tavsiya etilgan tovarlar ro'yxatiga kiritgan. Bundan tashqari, ushbu tavsiyaviy ro'yxatda qaysi tovarlar sovg'alar toifasiga kirishi mumkinligi ham ko'rsatib o'tilgan.

Biroq ushbu yoʻnalishda ham tartibga solinmagan import faoliyatini kamaytirish uchun cheklov choralari qoʻllaniladi. Quyidagi jadvalda turli mamlakatlarda pochta orqali tovarlarni bojsiz olib kirish meʼyorlari keltirilgan.

Xorijiy davlatlarda Internet-savdo – pochta joʻnatmalari orqali tovarlarni bojsiz olib kirish meʼyori

Mamlakat/Hudud	Pochtadagi tovarlarning qiymati, ular soliq va boj toʻlovlaridan ozod qilingan	Pochta joʻnatmasidagi tovarning qiymati, olib kirilayotganida QQS toʻlanadi, ammo bojxona toʻlovi toʻlanmaydi	Pochta joʻnatmasidagi tovarning qiymati, bunda soliq va boj toʻlovlarini toʻlaydi
Evropa Ittifoqi	22 yevrodan kam	22 dan 150 yevrogacha	150 yevrodan ortiq
Buyuk Britaniya	15 funtdan kam	15 dan 135 funtgacha	135 funtdan ortiq
Shveysariya		65 frankdan kam Kitob uchun 200 frankdan kam	65 frankdan ortiq Kitob uchun 200 frankdan ortiq
Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi	200 yevrodan kam		200 yevrodan ortiq
Ukraina	100 yevrodan kam		100 yevrodan ortiq
Janubiy Koreya	150 dollardan kam		150 dollardan ortiq
Xitoy	500 yuandan kam		500 yuandan ortiq
Kanada	20 kanada dollaridan kam		20 kanada dollaridan kam
Oʻzbekiston	100 dollardan kam (pochta joʻnatmalari) 1000 dollardan kam (chorakda bir marotaba)		100 dollardan ortiq (pochta joʻnatmalari) 1000 dollardan ortiq (chorakda bir marotaba)

Yevroosiyo Iqtisodiy ittifoqi (YeOII) mamlakatlarida 2020-yil 1-yanvardan boshlab internet-savdo doirasida jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirish chegarasi 500 yevrodan 200 yevrogacha pasaytirildi. Aprelda Rossiya Moliya vazirligi 2020-yil 1-iyuldan bojsiz olib kirish chegarasini 100 yevrogacha, 2021-yildan 50 yevrogacha, 2022-yil boshidan 20 yevrogacha tushirishni taklif qildi. Shu bilan birga, agar tovarning qiymati yoki vazn chegarasi hozirgi bir kilogramm uchun 2 yevrodan 3 yevroga oshsa, soliqning minimal stavkasini oshirishni taklif etgan.

Biroq Yevroosiyo Iqtisodiy komissiyasi hozirgi vaqtda YeOII mamlakatlari uchun onlayn-xaridlarni amalga oshirishda bojsiz olib kirish meʼyorini



tushirishni maqbul deb hisoblamaydi. Yevroosiyo Iqtisodiy komissiyasi may oyida, pandemiya avjiga chiqqan paytda bu mavzu muhokamasini to‘xtatdi. Bungacha Rossiya tomoni 2021-yilning o‘rtalariga qadar cheklovni 200 yevrodan 100 yevroga tushirish muddatini kechiktirish taklifini ilgari surgan edi.

O‘zbekiston fuqarolari – jismoniy shaxslar ham shaxsiy foydalanishlari uchun chet eldan tovarlarga buyurtmalar berishlari mumkin. Internet va mobil ilovalarning rivojlanishi bu imkoniyatlarni osonlashtiradi (so‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning soni 23,9 million, foydalanuvdagi smartfonlarning soni esa 19 milliondan ortiq).

Prezidentning 2018-yil 6-fevraldagi “Jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan jismoniy shaxslar tomonidan respublikaga bojxona to‘lovlari olinmaydigan tovarlarni olib kirishning chegaralangan me‘yorlari belgilangan bo‘lib, bular quyidagicha:

- xalqaro kuryerlik jo‘natmalari orqali jismoniy shaxslar nomiga kelayotgan tovarlar uchun – bir kalendar chorak mobaynida 1 000 (bir ming) AQSh dollari;
- xalqaro pochta jo‘natmalari orqali jismoniy shaxslar nomiga kelayotgan tovarlar uchun – 100 (yuz) AQSh dollari.

Prezidentning 2019-yil 7-noyabrdagi “Jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy ehtiyojlari uchun tovarlarni olib o‘tish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori bilan 2020-yil 1-yanvardan boshlab, notijorat maqsadlar uchun O‘zbekiston chegarasidan o‘tish punktlari orqali qo‘l yukida va kuzatib borilayotgan bagajida tovarlar olib kirayotgan jismoniy shaxslar uchun, shuningdek, jismoniy shaxs nomiga xalqaro pochta va kurerlik jo‘natmalari orqali keladigan tovarlarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan bojxona boji, qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i o‘rniga yagona bojxona to‘lovini to‘lashni nazarda tutuvchi bojxona to‘lovlarini undirishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan.

Shuningdek, bojxona qiymatining 30 foizi miqdorida yagona bojxona to‘lovi belgilangan, lekin har bir kilogramm yuk uchun 3 AQSh dollaridan kam bo‘lmagan miqdorda yagona bojxona to‘lovi stavkasi belgilandi, bu jismoniy shaxs tomonidan olib kirishning maksimal me‘yorlari oshib ketganda undiriladi.

Xo‘sh, bu kabi boj va soliq o‘zgartirishlari elektron tijoratning rivojlanishiga qay darajada ta’sir qiladi, degan savol kelib chiqadi. Albatta, bu kabi o‘zgarishlar O‘zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmasligi, aksincha uning mamlakatda yanada rivojlanishiga xizmat qilishi lozim.

Jahon miqyosidagi pandemiya sharoitida aksariyat xalqaro aviareyslarning to'xtatilishi, yuklarni yetkazib berishning keskin susayib ketishi oqibatida xalqaro pochta va yetkazib berish tizimlarini yanada takomillashtirish, bunda elektron tijorat tizimini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatib qo'ydi.

O'zbekistonda elektron tijorat tizimini rivojlantirish sharoitida hal qilinishi kerak bo'lgan bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ulardan biri - bu xorijiy internet - do'konlaridan tovarlarni yetkazib berish vaqtini qisqartirishga erishish zaruriyatidir. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, bu masalaning yechimlaridan biri sifatida maxsus bojxona omborxonalarini yaratish va ular faoliyatini to'liq avtomatlashtirilgan holda nazorat qilishga erishish ekanligini ta'kidlash joiz.

Shu bilan birga, O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarning ham elektron tijorat yo'li bilan boshqa davlatlarga jo'natish mexanizmlarini ham ishlab chiqish lozim. Albatta, bu masalalarni mutaxassislar ishtirokida sinchkovlik bilan o'rganib chiqish va, lozim bo'lganda, mavjud normativ hujjatlarga tuzatishlar kiritish orqali amalga oshirish zarur.

Rivojlangan davlatlar tomonidan elektron tijoratga katta e'tibor qaratilayotgani, bunday savdolar hajmi hozirgi kunda 6,5 trillion dollargacha o'sgani O'zbekistonda ham ushbu sohani yanada taraqqiy ettirish zarurligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda tayyorlangan iste'mol mollari va tovarlarini elektron tijorat tizimi orqali boshqa mamlakatlarga tez, oson va qulay sotish juda katta yutuqlarga erishishga, mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga sabab bo'ladi.

Buning uchun, albatta, mutaxassislar tayyorlash, aholi va tadbirkorlarni elektron tijoratdan keng foydalanish bo'yicha o'qitish, sohani rivojlantirishga xizmat qiladigan tizimlarni ishlab chiqish zarur. Jahon savdo aylanmasi yaqin kelajakda tez, qulay va arzon elektron tijorat tizimiga to'liq o'tishga hozirlik ko'rmoqda. Uni o'ziga to'liq moslashtirgan, uning qulaylik va afzalliklaridan foydalangan mamlakatlar katta yutuqlarga ega bo'lishi, juda ko'p aholini ish bilan ta'minlashi mumkin.

Xulosa. Shunday qilib, O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari yildan yilga o'sib borayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Uning rivojlanishi milliy ishlab chiqaruvchilarimizga yangi bozorlar ochish, yangi mijozlar topish imkoniyatlarini yaratadi. Elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha tanlangan va amaldagi yo'ldan to'g'ri borish, kelajakda O'zbekiston iqtisodiyotini jahon bozorining yetakchi vakillaridan biriga aylantiradi. O'zbekistonda elektron tijorat bo'yicha mavjud muammolarni hal qilishning to'g'ri yo'li tanlanganligi xalq farovonligida, jamiyatimizning taraqqiy topishida, iqtisodiy rivojlanishimizda o'z aksini topadi.

**Adabiyotlar:**

1. U. Sharifxodjayev, Z. Hakimov. Interaktiv va raqamli marketing. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. 2019.-271 b
2. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Samadov A.N., Alimxodjayeva N.E., Sharipov I.B. Marketing kommunikatsiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019.-418 b.
3. Gary Armstrong, Philip Kotler, Michael Harker, Ross Bernnan. Marketing an introduction. England, 2016, Paperback: 720 pages, Pearson.
4. N. Aliyeva, N. Sodikova “The development of Uzbekistan's digital economy and its primary directions” Евразийский журнал академических исследований, 3(10), 245–250. <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/22292>
5. N. Sodikova “Use of digital technologies in the course of practical training for economics majors in higher education” International bulletin of engineering and technology (T. 3, Выпуск 11, сс.5–8 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10081214>

РЕЗИОМЕ

Mazkur maqolada, elektron tijorat atamasiga ta'rif berilgan. Elektron tijoratning o'ziga xos qulayliklari va ustunliklari, hamda elektron tijoratni rivojlantirishda, dunyo tajribasida keng qo'llanilgan tamoyillari ko'rsatib o'tilgan. Elektron tijoratni rivojlantirish bilan bir qatorda bu sohaning takomillashishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar taxlil qilingan va bu muammolarni hal qilishda asosiy e'tibor beriladigan yo'nalishlar taklif qilinagan. Elektron tijoratni rivojlantirish jamiyat uchun beradigan natijalar ko'rsatilgan. Shuningdek, xulosa o'rnida elektron tijoratni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyaviy fikrlar berilgan.

РЕЗИОМЕ

В этой статье дано определение термина электронная коммерция. Показаны конкретные удобства и преимущества электронной коммерции, а также принципы, широко используемые при развитии электронной коммерции в мировом опыте. Помимо развития электронной коммерции, были проанализированы проблемы, препятствующие совершенствованию данного сектора, и предложены основные направления решения этих проблем. Показаны результаты развития электронной коммерции для общества. Также вместо заключения приведены рекомендации по развитию электронной коммерции.

SUMMARY

This article provides a definition of the term e-commerce. The specific conveniences and advantages of e-commerce are shown, as well as the principles widely used in the development of e-commerce in global experience. In addition to the development of e-commerce, the problems that impede the improvement of this sector were analyzed and the main directions for solving these problems were proposed. The results of the development of e-commerce for society are shown. Also, instead of a conclusion, recommendations for the development of e-commerce are given.